

EKOLOGIK MUAMMOLARNING TABIATGA ASOSLANGAN YECHIMLARI

Safarova Maftuna Sobirjon qizi

Prof. University Navoiy filiali Boshlang'ich ta'lim

3-kurs talabasi

maftunasafarova538@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.12.2025

Revised: 30.12.2025

Accepted: 31.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

ekologiya, inson salomatligi, zaxarli gazlar, chang, zarar.

Ekologik bilim, ekologik madaniyat, iqlim o'zgarishlari, tabiiy resurslar, atrof- muhit

Insoniyatning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini o'zgartirish va ekologik madaniyatini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda tabiat ne'matlarini kelajak avlod uchun asrab avaylash va yerkazish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Ushbu maqolada O'zbekiston hududidagi ekologiya inson salomatligiga qanchalik ta'siri haqida bayon qilingan. Shuningdek, Navoiy hududi ekologiyasidagi muammolar va ularga yechimlar haqida fikr yuritilgan

Inson va tabiat- bu ikki so'z ona va bola kabidir. Inson tabiatsiz yashay olmaydi, chunki inson tabiatning ajralmas bo'lagidir. Biz yashayotgan va bizni o'rab turgan bu tabiat onamiz kabi mehribon. Quyoshning zarrin nurlari, tuproqning har zarrasi, zilol suvlar va turli noz- ne'matlar bu mehrning yaqqol ko'rinishidir. Inson bu mehrga, bu munosabatga qanday javob qaytarmoqda?, bunday go'zal tabiatimiz bugungi kunda qay ahvolda? Bunga kimlar sababchi? Bunday savollarni ko'plab yozish mumkin, lekin unga javob berish, bu ahvolni tuzatish haqida ko'proq o'ylash, fikr yuritish kerak. Ming afsuslar bo'lsinki inson ona tabiatga bugungi kunda juda katta zarar va talofatlar yetkazmoqda. Bunga misol tariqasida jonivorlarni ovlashdir. Bu esa „Qizil kitob“ ga kiritilayotgan hayvonlarni sonini ko'payishiga sabab bo'ladi. Yo'qolish xavfi bo'lgan va yo'qolib ketgan jonivorlar ham shular qatoridadir. Biz insonlar faqat jonivorlarga emas, balki butun atrof muhitga bizga ko'ringa va ko'rinmagan narsalarga ham ziyon yetkazmoqdamiz. Orol dengizi muammosiga ham inson omili sabab. Endilikda bu muammo ekologiyaga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Orol dengizining qurigan sohalari tuzlar bilan qoplangan bo'lib, tuz zarralari shamol natijasida havoga ko'tarilib tuz to'zonlarini hosil qiladi. Bu esa turli astma kasalliklariga, qon bosimining haddan ortib ketishiga va ankologik kasalliklarga ham sabab bo'ladi.

Yana bir og'riqli nuqtamiz bu Navoiy viloyatida joylashgan „Navoiyazot“ zavodidir. Navoiy shahri, sanoat korxonalarini zich joylashgan markazlardan biri sifatida, atmosfera havosining ifloslanish darajasi bo'yicha e'tiborga loyiq hudud hisoblanadi. Navoiy shahri aholisi bu iflos havodan turli kaslliklarga chalinishmoqda, shu jumladan astma kasalligi avj olmoqda. Bu zaharli gazlar oqibatida allergik kasalliklar, yurak- qon tomir kasalliklari, teri kasalliklari, ko'z kasalliklari va bolalarda uchlaydigan kaslliklar eng achinarlisi ona homilasida kuzatilayotgan o'zgarishlardir. Homila muddatidan avval tug'ilishi, homila rivojlanishidagi nuqsonlar, homiladorlikda bosim ko'tarilishi shular jumlasidan. Havo tarkibidagi zaxarli gazlar statistikasi:

Azot dioksidi yuqori konsentratsiyada aniqlanib, maksimaldarajas $9\text{mg}/\text{m}^3$ ga yetgan. Ushbu gaz nafas yo'llari kasalliklariga olib kelishi, bronxialastma, surunkali yo'tal, yurak qon-tomir tizimiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, bu moddaning havodagi miqdori avtomobil transporti zich hududlarda kuzatuvlar orqali tasdiqlangan. Chang zarralari o'rtacha $0,14\text{mg}/\text{m}^3$ ni tashkil qilgan bo'lsa-da, maksimal qiymati $0,94\text{mg}/\text{m}^3$ ga yetgani ularning favqulodda ifloslanish holatlari kuzatilgan kunlarda (masalan, shamolli yoki qurg'oqchil iqlimli davrda) ortganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich nafaqat sanoat emissiyalari, balki tabiiy omillar-cho'lzonalari ta'siri bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Fenolva ammiak kabi organik birikmalarning ham atmosfera havosida aniqlanishi ekologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Garchi ularning o'rtacha konsentratsiyasi me'yordan past bo'lsa-da, fenolning maksimal darajasi $0,120\text{mg}/\text{m}^3$ ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlar aholi salomatligiga noqulay ta'sir ko'rsatish ehtimolini istisno qilmaydi. Ozon miqdori esa $0,04\text{mg}/\text{m}^3$ atrofida bo'lib, uning o'zgarishi asosan atmosferadagi fotokimyoviy reaksiyalar bilan bog'liq bo'lgan. Bu moddaning ma'lum darajada ortishi ko'z tirnashishi, nafas olishda og'riq va allergik reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. Yuqoridagi tahlillar asosida aniqlanishicha, Navoiy shahrida ayrim gazlar uchun atmosfera havosining sifati 2024-yil davomida turlicha holatlarda kuzatilgan.

Bu darajadagi zaharlanishga aholi shikoyatlar bilan chiqishdilar shu sababli hozirgi kunda Navoiy shahrida 22 ta korxonalar va fabrikalarning vaqtinchalik ish faoliyatlari to'xtatildi. Korxonalarga kamchiliklarini bartaraf qilish uchun 10 kun muhlat berildi. Shu muddat ichida kamchiliklar bartaraf etilmasa korxonalarga ish faoliyatlarini butunlay yakunlashlari takidlandi.

Ekologiyaning buzilishi va unga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bunga misol tariqasida, mamlakatimizda 5 yildan buyon o'tkazib kelinayotgan „Yashil makon“ umummilliy loyihasini ko'rishimiz mumkin. Loyiha yildan yilga takomillashib bormoqda. Har yili 200 mlndan daraxt ekilish hisobiga bugungi kunda 1mlnd daraxt va buta ko'chatlari ekilishiga asos solindi. Ushbu loyiha doirasida shaharlardagi yashil maydonlarni 8 % dan 30 % ga oshirish rejalashtirilmoqda. Atrof muhitni muhofaza

qilish, biologik xilma-xillikni asrash, iqlim o'zgarishlarini oldini olish, ozon qatlamining yemirilib borishi, cho'llanish (qurg'oqchilik), atmosfera ifloslanishi, kabi dolzarb masalalarga yechim topish hozirgi kunga kelib, insoniyatning eng katta burchi, vazifasidir. 2021-yilning 31-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan mamlakatimiz ekologiya sohasida dolzarb masalalarni belgilab berdi. . O'tgan davrda ekoharakat deputatlari guruhi tomonidan qoninchilik tashabbusi asosida "O'rmon to'g'risida", Hayvonot dunyosini va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Chiqindilar to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihalari tayyorlanib, Qonunchilik palatasiga kiritish mo'ljallanmoqda.

Yana shuni ham aytib o'tish joizki, muhtaram Prezidentimizning 2025- yilni „Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot“ yili deb nomlashi ham bejizga emas. Bu yilni nima sababdan bu tarzda nomlaganiga Prezidentimiz izoh berdi. "Yilni shunga bag'ishlab, qonunlarni charxlab, ishlarni saranjom qilib olamiz. Har bir qaror, farmonni yashillikka olib borsak, yaxshi bo'ladi",- dedi u.

Bu qarorga kelishni juda uzoq vaqt o'ylaganini takidlab, "Qo'llab-quvvatlasangizlar, 2025-yilni Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili deb e'lon qilsak? Yil nomini shunday qo'yganimizni men juda ko'p o'yladim, tabiatni asrash degan jumla ichida juda katta narsa mujassam", — dedi prezident. Bularning barchasi ekologiyamizning yaxshi tomonga o'zgarishiga yordam berishiga ishonib qolamiz. Albatta daraxtlarning ko'p ekilishi havoni oz bo'lsada tozalashga yordam beradi. Daraxtlar o'zidan biz uchun muhim bo'lgan kislorod chiqarib beradi. Shunday ekan biz bu tabiatni asrashimiz va avaylashimiz zarur. Navoiy viloyatidagi sanoat tarmoqlarining faoliyati natijasida yuzaga kelgan va kelayotgan ekologik ta'sirlarni kamaytirish uchun yanada ko'proq choralar ko'rish zarur.

Ekologik muammolarni samarali hal etish usullari haqida tadqiqotchi olimlarimiz ko'plab tadqiqotlar olib borishmoqda. Biz shu vaqtgacha ko'mir, neft va gazga asoslanib keldik, ammo shamol, quyosh, gedroenergetika texnologiyalari rivojlanishidan chiqindini kamaytirgan holda energiya ishlab chiqarishimiz mumkin. Bu bilan atmosferadagi ifloslanish keskin kamayib, iqlim o'zgarishlari yaxshilanadi, bu tabiiyki kelajak avlodning sog'lom tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Ekologik muammolarning yana bir usuli – ko‘chalarimizda bugungi kunda ko‘paygan, uzog‘imizni yaqin qilayotgan avtomabillar, avtobuslarni gazda, bebzinda emas elektr tokida yuruvchi elektromobillarni ko‘proq ishlab chiqarish va hayotga tadbiq qilishdir. Ular o‘zlarida juda ko‘p miqdorda chiqindi ajratadi va havoni ifloslantiradi.

Yana bir usuli- bu chiqindilarni alohida idishlarga yig‘ish va ularni qayta ishlash, biologik parchalanadigan mahsulotlardan foydalanish. Bunday usullar biologik muhitni yaxshilashga va tabiiy resurslarni saqlab qolishga yordam beradi. Ammo, bu usullar va texnologiyalar muammoni hal qilishga kamlik qiladi. Avvalo, har bir insonning xulq-atvorini va dunyoqarashini o‘zgartirish muhimdir. Ularda ekologiya va muammolar haqidagi bilimlarini yanada oshirish va rivojlantirish lozim. Tabiiy resurslardan ham oqilona foydalanish ko‘nikmalarini yanada oshirish ham muhimdir.

Toza havo, menerallarga to‘yingan zilol suv, musaffo osmon, vetamen va oqsillarga boy oziq-ovqat va sog‘lom hayot bu insoniyat uchun muhimdir va unga erishish, saqlab qolish har bir insoniyatning o‘z qo‘lida.

Qishloq va shaharlarni obodonlashtirish

Xulosa.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki tabiatni asrash har bir insonning ham farzi ham qarzidir. Inson ona tabiatning ajralmas bo‘lagi ekanini va tabiatimizni onamiz kabi hurmat qilish va ardoqlashni kelajak avlodga singdirishimiz lozim va shart. Buning uchun yoshlarda ekologik ta‘limni, ekologik madaniyatni oshirishimiz va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga o‘rgatishimiz kerak. Har bir inson ekologiyamiz yaxshilanishiga hissa qo‘shishimiz va ekologik muammolarni hal qilish yo‘lida faol va tashabbuskor bo‘lmog‘imiz zarur. Kelajak avlodga zaxarli gazlar bilan to‘lgan mamlakatni yoki dunyoni emas, musaffo osmoni bor, tabiati chiroyli ona zamin qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov, R. A. (2020). Navoiy viloyatida atmosferaning chang bilan ifloslanishi: monitoring va tahlil. O‘zbekiston Ekologiya Jurnal, 15(4), 67-75
2. Kun.uz sayti
3. Ra‘no Parpiyeva “Ekologiya buzilishi inson salomatligiga ta’siri” maqolasi.
4. O‘zbekiston shaharlariida atmosfera havosining ifloslanishi va zararli moddalari haqida hisobotlar. O‘zbekiston gidrometeorologiya bosh boshqarmasi. Toshkent-2004-2009
5. Xalq so‘zi. uz